



MAVZU: QR KOD ORQALI TO`LOVNI AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI

Muminov Azizbek Yakubaliyevich.

*Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum o'qituvchisi*

Annotatsiya: QR-kod (Quick Response Code) – tezkor aniqlanadigan kod hisoblanadi. Ushbu kod obyekt haqidagi ma'lumotni o'zida mujassam etadi.

Kalit so'zlar: To'lov tizimi, qr kod, bank, xaridorm sotuvchi, qr-online, mobil ilova

QR-kod Yaponiyada ixtiro qilingan va faqat avtomobil sanoatida ishlatilgan. Ammo vaqt o'tishi bilan bu tizimning afzalliklari, xususan, ma'lumotni tezkor aniqlaydigan qobiliyati mavjudligi tufayli nafaqat avtomobil sohasida, balki boshqa yo'nalishlarda ishlatilib kelinmoqda.

QR-kod oq rang ustida kvadrat setkasida joylashtirilgan qora kvadratlardan iborat bo'lib, smartfon kamerasi kabi tasvirni qayta ishlaydigan moslamalar yordamida o'qish mumkin.

Ushbu kod asosan giperhavola sifatida ishlaydi va bunday rasm (QR-kod)da matn shaklida joylashtirish noqulay bo'lgan yoki qimmatga tushadigan ma'lumotlar mavjud. Ular 4296 belgigacha (simvol) bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda QR-kod aloqa (kommunikatsion) jarayonlarini optimallashtiradi, masalan, u yordamida: vizitkada telefon nomerni shifrlash mumkin va bir marta bosishning o'zi bilan kontaktlar ro'yxatiga qo'shib qo'yish; internet havolasi bo'yicha tezkor o'tish; elektron xat yoki SMS yuborish; manzilning joylashuvini aniqlash; Wi-Fi (internet) routeriga avtomatik tarzda ulanish mumkin.



Bularning hammasidan tashqari ushbu tizim kundalik va turli savdo jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirdi. Bu kichik kvadratlarni mahsulot yorlig'ida, kommunal xizmatlar kvitansiyasida yoki veb-sayt sahifalarida topish mumkin.

"QR-online" - Uzcard va HUMO to'lov terminallarining to'laonli muqobilidir. Ushbu tizim to'lov va pul o'tkazmalari (QR-to'lovlari) uchun juda qulay yangilik bo'ldi. Ushbu onlayn imkoniyat O'zbekistonda elektron tijoratni muvaffaqiyatli rivojlantirmoqda, chunki u shaxsga naqd pul yoki bank kartalarini olib yurmaslik imkonini beradi. To'lov uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar to'lov ilovasi ichida mavjud bo'ladi.

Agar sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchida QR-kod yordamida to'lash imkoniyati mavjud bo'lsa, ular bank kartalarini qabul qilish uchun savdo terminaliga muhtojlik sezmaydi. Shunda xaridorga bank kartasini olib yurish hojati ham qolmaydi va buning ustiga kartasini boshqa odamning qo'lga berish xataridan o'zini himoya qiladi. Agar to'lov - onlayn harid bo'lsa, bank kartasi yoki shaxsiy ma'lumotlarni internet saytlariga kiritish shart bo'lmaydi.

QR-kod yordamida qanday to'lash kerak?

1. Smartfonga to'lovlar uchun ilovani (Payme, Click va hokazo) yuklab olish lozim. Ilova QR-kod tizimini qo'llab-quvvatlashi kerak;
2. Bank kartasini ilovaga bog'lash kerak bo'ladi;
3. To'lov ilovasidan foydalanib QR-kod (ma'lum bir mahsulot yoki xizmat uchun shakllantirilgan kod)ni skanerlash lozim;
4. Smartfon ekranida pul mablag'larini qabul qiluvchi hamda harid narxi ko'rsatiladi;
5. To'lovni tasdiqlash.

QR-kodlar ikki turga bo'linadi:



- **Statik.** Bunday kod faqat sotuvchining hisob raqami va aniq pozitsiyaning nomini o‘z ichiga oladi. Xaridor to‘lov summasini mustaqil kiritadi. Statik kodlar ko‘pincha umumiy ovqatlanish muassasalari va transportda ishlatiladi.
- **Dinamik.** Ushbu QRlarda tovar yoki xizmat qiymati allaqachon shifrlangan bo‘ladi. Xaridorga smartfon kamerasini yo‘naltirish, kod o‘qish va to‘lov tugmasini bosish kifoya. Bunday kodlar yirik savdo tarmoqlarida qo‘llaniladi.

Savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari “QR-online” tizimi orqali mijozlardan qabul qilingan va bank hisobvaraqlariga kirim qilinadigan mablag'larni “Telegram” tarmog'idagi “@onlineqrbot” kanali, mijozning bank shaxsiy kabineti hamda sms-xabarnoma xizmati orqali onlayn rejimida nazorat qilib borishlari mumkin.

“Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident Farmoni (PF–246-son, 10.12.2025-y.) qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, quyidagilar 2030-yilgacha yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib belgilandi, jumladan:

- yalpi ichki mahsulotga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 1,3 baravarga qisqartirish;
- savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida aholi tomonidan to'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirish ulushini 75 foizga yetkazish.

2026-yil 1-apreldan quyidagilar uchun to'lovlar faqatgina bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi:

- davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar;
- elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvidan foydalanganlik uchun to'lovlar;
- alkogol va tamaki mahsulotlari;
- transportlarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali aholiga neft-gaz mahsulotlarini sotish va elektrda harakatlanadigan transportlarni zaryadlash bo'yicha xizmatlar;



- qiymati 25 mln so'mdan oshadigan tovar va xizmatlar;
- ko'chmas mulk obyektlari, ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan M, N, O va G toifaga kiruvchi transportlar hamda maxsus avtotransport vositalarini sotish va sotib olish.

Boshqa har qanday hisob-kitob usuli kabi, QR-to'lovda ham xaridor, ham sotuvchi uchun afzalliklar va kamchiliklar mavjud. Xaridor uchun afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Yuqori darajadagi xavfsizlik. QR-to'lovda huquqbuzarlar o'g'irlyadigan hech narsa yo'q: xaridor sotuvchiga naqd pul bermaydi va hisob-kitob paytida bank kartasi ma'lumotlarini ko'rsatmaydi.
- Foydalanish qulayligi va soddaligi. To'lov uchun faqatgina kamera va QR orqali to'lovni ta'minlaydigan ilovaga ega smartfon kerak bo'ladi. Yoningizda naqd pul yoki karta olib yurish shart emas.
- Pullarni qaytarish kafolati. QR-kod orqali to'lov qilganda bank mobil ilovasida elektron chek saqlanib qoladi. Agar xaridni bekor qilish kerak bo'lsa, ushbu chekni sotuvchiga qaytarishni amalga oshirishi uchun taqdim etish kifoya.
- Keshbek. Uzun Pay orqali to'langanda xaridorlar sarflangan so'mdan 20% gacha qaytaradi. Ilovada mijoz qaysi xaridlar uchun keshbek olishi haqida batafsil ma'lumot aks etadi.

Kamchilik — nuqtalarning cheklangan soni. Barcha sotuvchilar ham to'lovlarni qabul qilish uchun kodlar bilan ishlashga rozi bo'lavermaydi. To'lov qilish uchun internetga ulanish kerak bo'ladi.

Sotuvchi uchun afzalliklari quyidagicha:

- Uskunalarda pul tejash. To'lovlarni qabul qilish uchun sotuvchilarga terminallar sotib olish va ularga xizmat ko'rsatish uchun mablag' sarflash kerak bo'lmaydi. Hisob varag'i ochilgan xizmat ko'rsatuvchi bankda opsiyani ulash kifoya.



- To'lovni darhol qayta ishlash. Agar xaridor QR-kod orqali pul o'tkazsa, u bir necha soniya ichida hisob raqamiga tushadi.
- Operatsiya uchun tushirilgan komissiya. QR-kod orqali to'lovlar bo'yicha banklar sotuvchilar uchun kartada to'lashga qaraganda qulayroq shartlarni taklif qiladi. Bu, ayniqsa, yirik summalar haqida gap ketganda muhim. Komissiya miqdori mijozning faoliyat sohasiga bog'liq bo'ladi.
- Keshbek. Ba'zi banklar QR-to'lovlarni qabul qilganda ma'lum summani qaytaradi.
- Yagona kamchilik — ba'zi xaridorlar bunday to'lov usuliga hali ishonmaydi.

Adabiyotlar:

1. “Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident Farmoni (PF–246-son, 10.12.2025-y.)
2. R.Normaxmatov. «Tovarshunoslik asoslari, standartlashtirish va sertifikatlashtirish» KXK uchun o'quv qo'llanma. 2004 yil
3. X.Muxitdinov va boshqalar. «Tovarshunoslik» KXK uchun o'quv qo'llanma. 2010 yil.
4. Internet manbalar.